

OT YASALISHI

Ot yasovchi qo'shimcha, uning xususiyati, yasalma va uning asosi quyidagi jadvalda berilgan: (affiksotsiya-morfologik)

Qo'shimcha	Xususiyati	Yasalma	Asos
—a		Qahqaha, do'mbira	Taqlid
—ak		Pirpirak, guldurak, varrak, qarsak, xurrak	Taqlid
—archilik	Unumsiz	Ocharchilik	Sifat
—at		Ko'chat, o'lat	Fe'l
		Ko'kat	Sifat
—bin		Folbin	Ot
—bon		Darvozabon, tarozibon (Darvozavon, tarozivon emas)	Ot
—boz		Dorboz, qimorboz, masxaraboz (Dorvoz, qimorvoz, masxaravoz emas)	Ot
—voy	Unumsiz	Novvoy (nonvoy)	Ot
—vchi/-uvchi		Uchuvchi, o'quvchi, aniglovchi	Fe'l
—gar/—kar		Zargar, da'vogar, miskar	Ot
—garchilik		Odangarchilik, yog'ingarchilik	Ot
		Namgarchilik, sharmandagarchilik	Sifat
—gi(-ki, -qi, -g'i, -g'u)		Sevgi, supurgi, kulgu, turtki, sanchqi, tuyg'u, tomizg'i	Fe'l
—gir		Jahongir, fazogir	Ot
—gich(-kich, -qich, -g'ich)		Kulgich, ko'rsatkich, tutqich, chizg'ich	Fe'l
—gin(-qin, -g'in, -gun, -qun)		Tizgin, to'liqin, quvg'in, surgun, uchqun	Fe'l
—goh		Ziyoratgoh, bazmgoh	Ot
—dak, —doq		Yugurdak, qo'ndoq	Fe'l
—diq		O'rindiq	Ot
		Qoldiq, hordiq	Fe'l
—don		Kuldon, qalamdon	Ot
—dor		Muhrdor, chorvador	Ot
—dosh		Sinfdoq	Ot
—do'z		Kashtado'z	Ot
—zor		Gulzor	Ot
—ik		Ko'rik, kekirik	Fe'l
	eski	Bilik, bitik	Fe'l
		Ko'pik	Ravish
—ildoq		Hiqildoq	Taqlid
—imlik		O'simlik, ichimlik	Fe'l
—in		Yig'in	Fe'l
—(i)ndi, -undi		Chiqindi, chirindi, kuyundi	Fe'l
—iston		Guliston, go'riston, O'zbekiston	Ot
—it	Unumsiz	Chigit	Fe'l
—ich		Cho'mich, bog'ich	Fe'l
—ish		Qarg'ish (tushish)	Fe'l
—iq, -uq		Kesatiq, buyruq (tushish)	Fe'l
—k		Ko'rk, kurak	Fe'l
—kash		Qalamkash, aravakash	ot
—kilik, —gilik	Unumsiz	Ichkilik, ko'rgilik	Fe'l
—kor		Sholikor, san'atkor	Ot
—kov	Unumsiz	Go'rkov	Ot
—lik, -liq		Bolalik, boshliq	Ot
		Yaxshilik, ezgulik	sifat
		Birlik, to'rtlik	Son
		O'zlik	Olmosh
		Tezlik, birgalik	Ravish
		Borliq, yo'qlik	Modal
—loq		O'tloq, toshloq	Ot
—m/-im/-um		To'plam, qo'nim, tuzum	Fe'l
—ma		Surma, tortma	Fe'l
—moq		Chaqmoq, topishmoq	Fe'l
—machoq		Bekinmachoq	Fe'l
—mish		O'tmish, qilmish	Fe'l
—movchilik		Anglashilmovchilik, yetishmovchilik	Fe'l
—navis		Romannavis	Ot
—on		Qiron, to'zon	Fe'l
—os		Uvvos	Taqlid
—ot/—at	Arabcha	Ma'lumot, mushkulot, xarobot, she'riyat, madaniyat	Sifat

—paz		Oshpaz	Ot
—soz		Kemasoz	Ot
—furush		Nosfurush	Ot
—xon		Kitobxon,she'rxon	Ot
—xo'r		Merosxo'r	Ot
—ch//—j//inch		Sevinch,ilinj,qo'rqinch	Fe'l
—cha		Tushuncha	Fe'l
—chak/-choq		Belanchak, ovunchaq (kelinchak, toychoq-tub so'zlar)	Fe'l
		O'yinchoq	Ot
—chi		Temirchi	ot
		Qiziqchi	sifat
		Tilanchi,tomchi	Fe'l
		haybarakallachi	undov
—chilik		Dehqonchilik	Ot
		Arzonchilik	Sifat
		Ko'pchilik	Ravish
—chiq		Suyanchiq	Fe'l
—shunos		Uslubshunos	Ot
—q//—oq		Charchoq ,yotoq	Fe'l